

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING AYRIM O'ZIGA XOS KRIMINOLOGIK JIHATLARI

Ganiyev Sherzod Alisherovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Tashkiliy departamenti boshlig'i o'rinbosari,
Axborot-tahlil boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, dotsent*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida kriminologik tadqiqotlarni o'tkazishning dolzarbligi asoslantirilgan. Jumladan, ko'chalar va jamoat joylarida jinoyatlarning barvaqt oldini olish borasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi ichki ishlar organlari bo'linmalariga joriy etilayotgan zamonaviy vositalar va yangi ishlash usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kriminologiya fani, jamoat xavfsizligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, jinoyatlarning barvaqt oldini olish.

Abstract. This article attempts to explain the relevance of criminological research in the field of ensuring public safety in the conditions of the Republic of Uzbekistan. Namely, new methods of work and modern means being introduced into the activities of departments of internal affairs bodies for the early prevention of crimes in public places and on the streets were analyzed.

Keywords: Science of criminology, public safety, ensuring public safety, ensuring public order, early crime prevention.

Tarixdan ma'lumki, jahon kriminologiyasi fan sifatida ilk bor 1885-yilda Rafael Garofalo tomonidan chop etilgan "Kriminologiya" kitobi asosida joriy etilgan [1] bo'lib, unda kriminologiya aynan jinoyatlarning tabiatini, ya'ni jinoyatlar sodir etilishining sabablari va jinoyatlar sodir etilishiga imkon bergan omillarni o'rganishga ixtisoslashgan fan sifatida talqin qilingan.

Aytish joizki, o'tgan davr ichida ushbu fan va uning metodikasi bir necha marotaba o'zgarib, har bir jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarga ko'ra shakllanib kelgan. Bunda, muayyan hudud va jamiyatning shakllanishiga qarab, shu kunga qadar dunyoda vujudga kelgan huquq tizimlari (oilalari) anglo-sakson, romano-german (kontinental), islom, huquqiy odat [2] kabi toifalariga ajratiladi.

Buning kriminologiyaga bo'lgan ahamiyati shundaki, jinoyat – bu muayyan huquqni buzish, ya'ni qonun bilan jamiyat uchun majburiy etib belgilangan normalarga amal qilmaslik bilan bog'liq xatti-harakat yoki harakatsizlik [3] – deb e'tirof etilishidir.

Shuni alohida aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra, har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.

Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.

Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi [4].

Mazkur huquqlar davlat tomonidan to'liq kafolatlanishi, ularni buzganlarga nisbatan qonuniy va muqarrar jazo ta'minlanishi – davlat organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, bugungi kunda boshqa davlatlar kabi O'zbekiston Respublikasida ham jinoyat sifatida aynan Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan tartib-taomillarga rioya etmaslik yoki ularni qasddan buzish – qonunbuzilishi hisoblanadi va unga nisbatan jazo choralari (ma'muriy yoki jinoiy) qo'llaniladi.

Xususan, jinoiy qonunchiligimizda, bir qator qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, ular shaxsga qarshi, tinchlik va xavfsizlikka qarshi, iqtisodiyot va ekologiya sohalaridagi, hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi hamda harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi kabi toifalariga ajratiladi [5].

Xuddi shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, mulkka tajovuz qiluvchi, saylov (referendum) tashkil etish va o'tkazish, aholi sog'lig'ini saqlash sohasidagi, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanoat, qurilish, issiqlik va elektr energiyasidan foydalanish, qishloq xo'jaligi, veterinariya, sanitariya, transport, yo'l xo'jaligi, aloqa, kommunal xizmat, obodonlashtirish, savdo, tadbirkorlik, moliya sohalaridagi, shuningdek, odil sudlovga, jamoat tartibi yoki boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi qilmishlar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan [6].

Mazkur qilmishlar bir tomondan, O'zbekiston sharoitida kriminologik tadqiqotlarning aniq yo'nalishlarini belgilaydi, ikkinchi tomondan esa, ularning barvaqt oldini olish uchun mas'ul davlat idoralari faoliyatini o'rganish uchun asos bo'ldi, deb o'ylaymiz.

Ma'lumki, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2021-yilda ilk bor jamoat xavfsizligi sohasida mavjud xavf-xatarlar va ularni bartaraf etishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlardan iborat O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasi qabul qilindi.

Mazkur Konsepsiya bilan O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi bir qator milliy manfaatlar belgilandi.

Xususan:

- jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash;
- aholining huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini, siyosiy hamda ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas'uliyatini oshirish asosida mamlakatda huquqiy jamiyatni barpo etish va mustahkamlash;

– huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini mustahkamlash, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish;

– mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining faol va bunyodkor rolini, jamiyat va davlatning o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;

– jamiyatda millatlararo va dinlararo munosabatlarni, diniy bag'rikenglik madaniyatini, do'stlik, o'zaro hamkorlik va gumanizmni har tomonlama mustahkamlash;

– dunyoda doimiy ravishda kechayotgan o'zgarishlar va ular bilan bog'liq real hamda ehtimoliy tahdidlar sharoitida jamiyatning o'zligini (tili, madaniyati, ijtimoiy tuzilishi, milliy o'ziga xosligi va dinini), ya'ni o'zini o'zi saqlab qolish qobiliyati va salohiyatini mustahkamlash [7].

Ko'rinib turibdiki, mazkur Farmon bilan belgilangan milliy manfaatlar jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan belgilangan huquq va majburiyatlarni to'liq ifoda etish, davlatimizda ko'p millatlar, turli irq va dinga mansub bo'lgan aholi o'rtasida har qanday ziddiyat va kelishmovchiliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan.

Bu orqali jamoat xavfsizligiga, milliy qadriyatlar, odamlarning o'ziga xos xususiyatlari va an'analariga, ijtimoiy, ma'naviy va tarixiy taraqqiyotga tahdid solishi mumkin bo'lgan tajovuzkor harakatlar sodir etilishiga qarshi kurashish bo'yicha mustahkam poydevor yaratildi.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash konsepsiyasida ushbu sohada bir qator asosiy yo'nalishlar belgilab berilgan, ya'ni:

– jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan keng qamrovli maqsadli dasturlarni qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlash;

– jamiyatning qonunga xilof tajovuzlardan himoya qilinishini ta'minlash, shu jumladan bunday tajovuzlarning barvaqt oldini olish, ularning asosiy omillarini aniqlash va bartaraf etish;

– ijtimoiy va millatlararo nizolarning profilaktikasini amalga oshirish;

– har qanday ko'rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va unga chek

qo'yish, korrupsiya, giyohvand va psixotrop moddalar, qurol, o'q-dori, portlovchi moddalar, noqonuniy migratsiya va odam savdosi hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;

- ijtimoiy infratuzilmaning, shu jumladan turizm obyektlarining uzluksiz va xavfsiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;

- transport infratuzilmasini, transport vositalarining xavfsizlik standartlarini va yo'l harakati qoidalarini takomillashtirish orqali yo'l-transport hodisalari oqibatida yetkaziladigan zarar va o'lim bilan bog'liq holatlarning oldini olish;

- jinoyat sodir etishga moyil, ma'muriy va probatsiya nazoratiga olingan hamda yot bo'lgan g'oyalar ta'siriga tushib adashgan shaxslarning ijtimoiylashuvi, shu jumladan ularni kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ushbu toifadagi fuqarolar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik;

- aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlashda aholining ko'nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish;

- voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorizm, ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

- jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish;

- jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb qilinadigan vakolatli davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta'minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish shular jumlasidandir.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ijrosi uchun 10 ta davlat idorasi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla uyushmasi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Sog'liqni

saqlash vazirligi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari mas'ul etib belgilandi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy qilish bo'yicha aniq mexanizmlarni nazarda tutuvchi manzilli chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash Vazirlar Mahkamasi, ushbu chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash vazifasi esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi zimmasiga yuklatildi [7].

Mazkur mexanizm respublikamiz hududida jamoat xavfsizligini ta'minlash va ushbu sohada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzilishi holatlarining barvaqt oldini olish hamda ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratildi.

Respublikamizda jamoat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday hodisa yoki qonunbuzilishi holatlarining barvaqt aniqlash va ular bo'yicha qonuniy choralarini ko'rish aynan ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash – ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan [8].

Shuningdek, so'nggi sakkiz yil davomida ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda alohida e'tibor aynan jamoat xavfsizligini ta'minlashga qator zamonaviy ish uslublarini tatbiq etish hamda ushbu soha faoliyatini raqamlashtirish masalasiga qaratildi.

Jumladan:

- viloyatlarda jinoyatlar bo'yicha xabarlarini qayd qilishning "102" avtomatlashtirilgan tizimi joriy etildi;

- barcha vazirlik va idoralarga integratsiyalashgan ma'muriy huquqbuzarliklar va yo'l harakati qoidabuzarliklari bo'yicha bayon-nomalarni elektron tarzda rasmiylashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi;

- ko'chalarda xavfsizlik holatini kuzatish uchun "Tezkor boshqaruv markazlari", monitoring markazlari tashkil etilib, ularga jamoat joylarida o'rnatilgan videokuzatuv moslamalari integratsiya qilindi;

- profilaktika inspektorlari, yo'l-patrul, patrul-post xizmati xodimlari "bodikamera", planshetlar, alqotester moslamalari bilan ta'minlandi;

– jamoat joylarida o'tkir mast holatida bo'lgan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish tizimi yaratildi;

– jamoat joylarida sovuq qurol olib yurish, o'qotar ov va pnevmatik qurollarning aylanmasi qoidalariga amal qilmaslik uchun alohida javobgarlik belgilandi;

– respublikaning ayrim hududlarida otliq patrullar, barcha viloyat markazlarida esa avto, moto, elektroskuter patrullik yo'nalishlari tashkil etildi.

Mazkur vositalardan samarali foydalangan holda jamoat tartibini ishonchli saqlash hamda ushbu faoliyat uchun bevosita mas'ul sohaviy xizmatlarni muvofiqlashtirish maqsadida Ichki ishlar vazirligi tarkibida Jamoat xavfsizligi departamenti, hududiy ichki ishlar organlarida esa Jamoat xavfsizligi bo'linmalari qaytadan tashkil etildi.

Departament va uning hududiy bo'linmalari tarkibiga huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligi va probatsiya bo'linmalari kiritildi [9].

Bevosita jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi asosiy xizmat faoliyatini, ya'ni ko'chalar va jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash borasidagi kunlik xizmatni patrul-post naryadlari amalga oshirib kelmoqda.

Ular, asosan, viloyat markazlari, yirik shaharlar hamda aholi zich joylashgan tumanlarda patrullik xizmat faoliyatini o'tamoqda.

Shuningdek, Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlarida joylashgan xiyobonlar, istirohat bog'lari va barcha bozorlarda jamoat tartibini saqlash vazifasi Milliy gvardiya bo'linmalarining vazifasi sifatida belgilangan [7].

O'z navbatida, mazkur bo'linmalar joylashmagan joylarda jamoat tartibini saqlash vazifasi bevosita profilaktika inspektorlarining zimmasiga yuklatilgan bo'lib, ularga bu borada 2018-yildan boshlab, jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari hamda "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlari yaqindan yordam ko'rsatib kelmoqda [10].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, joriy yilning o'zida, Davlatimiz rahbarining hududlarga bo'lgan tashriflari davomida jamoat tartibini saqlash faoliyatiga bir qator yangicha ishlash amaliyotlari joriy etilmoqda.

Misol uchun, yonma-yon joylashgan, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarni kichik

hududlarga ajratgan holda, ularda yangicha ish uslublari orqali jamoat tartibini saqlash bo'yicha Namangan shahar tajribasi yaratildi [11].

Bunda, Namangan shahar hududi 15 ta mikrohududlarga ajratildi va har birida "profilaktika bosh inspektori", "profilaktika kichik inspektori" lavozimlari kiritilib, ularga hududda jamoat tartibini saqlash bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, Buxoro viloyatidagi mahallalarning jamoat joylarida huquqbuzarliklarning oldini olish uchun kichik hajmdagi dronlardan foydalanish tajriba tariqasida yo'lga qo'yildi [12].

Mazkur tajriba natijasida profilaktika katta inspektorlari dronlardan foydalangan holda hududlardagi vaziyatni to'liq nazorat qilish, olis joylar orqali mahalla hududiga kirib kelgan begona shaxslarni aniqlash va ular bilan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Yana bir yangicha ishlash amaliyoti Jizzax viloyatida yaratilib, kriminogen jihatidan nisbatan og'ir baholangan Jizzax shahar va Sharof Rashidov tumanlarida patrul-post xizmati naryadlari bevosita tuman-shahar boshliqlarining bo'ysunuviga o'tkazilib, "qizil" toifadagi mahallalarda profilaktika inspektorlari bilan yaqindan hamkorlikda xizmat qilishi yo'lga qo'yildi.

Mazkur tajribalar, qisqa fursatda bevosita kriminogen jihatdan og'ir hududlarda vaziyatni jilovlash, jinoyatlarning barvaqt oldini olishda o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Mazkur misollar, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, jinoyatlar sodir etilishining asl sabablarini va kriminogen vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash orqali mavjud kuch-vositalardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish qanchalik muhim ekanligini yana bir bor isbotlamoqda.

Kriminogen jihatdan og'ir hududlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash va ularda jinoyatlarning barvaqt oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy etish borasida tayanch kriminologik tadqiqotlarni amalga oshirish juda muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, joylarning o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda vujudga kelayotgan real tezkor va kriminogen vaziyatni hamda jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish, jinoyatlar sodir etilishiga imkon yaratib berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik,

viktimologik va boshqa omillarini aniqlash, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar asosida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni muntazam ravishda ishlab chiqish zarurati mavjud.

Aynan mana shulardan kelib chiqib, joriy yil boshida Davlatimiz rahbari tomonidan Ichki ishlar vazirligi huzurida O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutini tashkil etish bo'yicha qaror imzolandi [11].

Mazkur Institut bir qator muhim yo'nalishlarda tizimli kriminologik tadqiqotlarni olib borish va ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun bevosita mas'ul hisoblanadi.

Jumladan:

- jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida "g'oyadan amaliyotgacha" degan yangi tamoyil asosida ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali fanlararo bilimlarni qo'llash tizimini yaratish;

- jinoyatchilik, shu jumladan latent jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, salbiy tendensiyalarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- jinoyatning asl omillarini kompleks ilmiy diagnoz asosida aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlari tizimini belgilash, kriminologik faoliyatga sun'iy intellekt va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etib borish;

- yuridik, sotsiologik, psixologik, pedagogik, tibbiy, atrof-muhit, raqamli kriminologiya kabi

zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish, ta'lim muassasalarida kriminologiya fanini tizimli o'qitish orqali yoshlarda jinoyatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- zarur tashkiliy-huquqiy va tuzilmaviy asoslarni shakllantirgan holda jinoyatchilik omillari va uning salbiy tendensiyalari bartaraf etilganligini ilmiy baholash amaliyotini yo'lga qo'yish;

- rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan manzilli hamkorlikni faollashtirish, qo'shma kriminologik tadqiqotlarni amalga oshirishni yo'lga qo'yish hamda O'zbekiston kriminologiyasi jahon reytinglarida munosib o'rin egallashini ta'minlash.

Bu orqali esa, respublikamizda osoyishtalik muhitini yaratish, jamoat xavfsizligiga bo'lgan har qanday xavf-xatar va tahdidlarning barvaqt oldini olish, yangi jinoyat turlari va ularni sodir etish usullarini aniqlab, ularga qarshi kurashish bo'yicha preventiv mexanizmlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Kelgusida, jamoat xavfsizligi ta'minlash uchun mas'ul hisoblangan davlat idoralari tomonidan ushbu Institut bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'ziga taalluqli bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha chuqur tadqiqotlarni o'tkazib, jinoyatlar sodir etilishining asl sabablari va omillarni aniqlab, ularga barham berish uchun ilmiy asoslantirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Гарофало Рафаэлле. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона в 86 т. (82 т. и 4 доп.) – СПб., 1890–1907.
2. Давид Р. Основные правовые системы современности. – М., 2009.
3. Криминология: Учебник / Под ред. Н. Ф. Кузнецовой, В. В. Лунеева. – М., 2004. – С. 90.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi / <https://lex.uz>.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi / <https://lex.uz>.
6. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. / <https://lex.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 29.11.2021 PF-27-son farmoni / <https://lex.uz>.
8. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida" 16.09.2016 O'RQ-407-son qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 26.03.2021 PF-6196-son farmoni / <https://lex.uz>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 24.12.2018 PQ-4075-son qarori.
11. Elektron manbaa: <https://president.uz/uz/lists/view/7646>.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 15.01.2024 PQ-22-son qarori / <https://lex.uz>.